



OLIV TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



**ORIENTAL**  
UNIVERSITETI



RECEP TAYYIP  
ERDOĞAN  
ÜNİVERSİTESİ



SELÇUK  
ÜNİVERSİTESİ



2007  
**KARABÜK**  
ÜNİVERSİTESİ



# INNOVATION TADDIQOTLARD O'ZBEKISTON TARIXINING DOLZARB MASALALARI MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN ELEKTRON TO'PLAMI

TOSHKENT, 30-APREL 2025-YIL

**Mas'ul muharrir:**  
**N.A.Mamataxunov** – tarix fanlari bo'yicha PhD

**Tahrir hay'ati a'zolari**  
Sh.Kamoliddin - Tarix fanlari doktori, professor  
I.Bobojonov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
I.Xo'jaxonov – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Y.Cankaloğlu – Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Taqrizchilar**  
H.Hamidov – Oriental universiteti “Tarix” kafedrası professori, Tarix fanlari  
bo'yicha doktori  
J.Kamolov – O'zMPU “Jahon tarixi” kafedrası dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD)

Mazkur ilmiy to'plamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmonlarida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Oriental universiteti “Tarix” kafedrası tomonidan 2025-yil 30-aprel kuni tashkil etilgan **“Innovatsion tadqiqotlarda O'zbekiston tarixining dolzarb masalalari”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalari va tezlari o'rin olgan.

Unda ko'zga ko'ringan olimlar, fan doktorlari, pedagoglar hamda yosh tadqiqotchilarning Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy faoliyati tadqiqiga bag'ishlangan qator ilmiy izlanishlari natijalari o'rin olgan.

Anjuman materiallaridan tadqiqotchilar, professor-o'qituvchilar, pedagoglar, oliy o'quv yurti talabalari manba sifatida foydalanishlari mumkin.

To'plamdagi maqolalar matni va mazmuniga mualliflar mas'uldir!

Ushbu to'plam Oriental universiteti Kengashining 2025-yil 27-mart kuni bo'lib o'tgan 6-sonli yig'ilishida nashrga tavsiya etilgan.

© Oriental universiteti, 2025

*Xursand bo'lgan chog'imiz,  
Mevalansun bog'imiz!*

*Turkistonli — shonimiz, turonli — unvonimiz,  
Vatan — bizni jonimiz, fido o'lsun qonimiz!*

Xalqimizning bugungi madaniy-ma'naviy yuksaklikka erishuvi va istiqloq mevalaridan bahramand bo'lishida mutafakkur va muboriz shoir Cho'lponning xizmatlari g'oyat katta. U XX asrning birinchi choragida o'z asarlari bilan mudroq xalqni uyg'otish ishiga qanday muhim hissa qo'shgan bo'lsa, keyin ham xalq va Vatan ozodligi yo'lida, milliy taraqqiyot yo'lida fidoyilarcha ijod qilib, chin ma'noda mustaqillik uchun olib borilgan kurashning bayroqdorlaridan biri bo'lib qoldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev. Sh. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga". № 258 (1047), "Yangi O'zbekiston" 2023-yil 12-dekabr, seshanba
2. Alimova. D. Abdulhamid Cho'lpon va zamon. № 197 (197), 2020-yil 15-oktyabr, payshanba
3. Cho'lpon. Asarlar. To'rt jillik. 1-jild. She'rlar. - Toshkent: "Akademyashir", 2016.
4. Karimov. N. Tanlangan asarlar. - Toshkent: "Adabiyot", 2024.

### **ROSSIYA FABRIKA QOG'OZLARI VA ULARNING O'RTA OSIYOGA KIRIB KELISHI**

**Oybek Klichev**

*Buxoro davlat universiteti*

*Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi*

*dotsenti, t.f.d. (DSc)*

[klichev\\_oybek@mail.ru](mailto:klichev_oybek@mail.ru)

**Annotatsiya.** Diplomatiq muloqot vositasi hisoblangan yozishmalar tarixiy manba vazifasini bajaradi. Oliy darajadagi maktublar yohud idaralararo xat almashinuvi tarixini o'rganish jarayonida bu turdagi manbaning tashqi tavsifiy jihatlariga e'tibor qaratish lozim. Tadqiqotchilarda diplomatiq maktubning qanday turdagi qog'ozda yozilishini farqlash ko'nikmasining shakllanishi, davlatlararo munosabat, yohud devonxona tizimi hususida dastlabki tassavurlarni shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu izlanishda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida O'rta Osiyo mintaqasi xususan amirlik devonxonasida asosiy yozuv ashyosi vazifasini bajargan Rossiya fabrika qog'ozi va uning kirib kelishi masalasiga to'xtalib o'tiladi. **Kalit so'z va iboralar.** Buxoro, qog'oz, manufaktura, Paxre daryosi, Pyotr I, qog'oz tegirmonlari, "karton", yozishmalar, Turkiston general-gubernatorligi, diplomatiq amaldor, Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agentligi.

**Аннотация.** Переписка, считающаяся инструментом дипломатического общения, служит историческим источником. При изучении переписки высокопоставленных лиц и межведомственного обмена письмами необходимо обращать внимание на внешние описательные аспекты данного вида источника. Формирование у исследователей умения различать виды бумаги, на которой написано дипломатическое письмо, служит формированию первоначальных представлений сторон относительно межгосударственных

отношений и системы канцелярии. В настоящем исследовании основное внимание уделяется внедрению русской фабричной бумаги, которая служила основным писчим материалом в Среднеазиатском регионе, особенно в канцеляриях эмирата, в конце XIX — начале XX вв. **Ключевые слова и фразы.** Бухара, бумажное производство, река Пахре, Петр I, бумажные фабрики, «картон», переписка, Туркестанский генерал-губернатор, дипломатический чиновник, Политическое агентство российского императора в Бухаре.

**Annotation.** Correspondence, considered an instrument of diplomatic communication, serves as a historical source. When studying the correspondence of high-ranking officials and the interdepartmental exchange of letters, it is necessary to pay attention to the external descriptive aspects of this type of source. The formation of researchers' ability to distinguish between the types of paper on which a diplomatic letter is written serves to form the initial ideas of the parties regarding interstate relations and the concession system. The present study focuses on the introduction of Russian factory paper, which served as the main writing material in the Central Asian region, especially in the offices of the emirate, in the late 19th and early 20th centuries. **Keywords and phrases.** Bukhara, paper production, Pakhre river, Peter I, paper mills, cardboard, correspondence, Turkestan governor-general, diplomatic official, Political Agency of the Russian Emperor in Bukhara.

Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida yaratilgan ma'naviy merosimizning asosiy qismi yozuv qog'ozida yozilgan va bizgacha yetib kelgan. Sharq olamida mashhur qog'ozlarning bir qismi Samarqand, Buxoro va Qo'qon shaharlaridagi suv tegirmonlarida tayyorlangan. Ushbu qog'ozlar o'z davrida sifati, arab imlosidagi harflarning yozilishidagi qulayligi jihatidan xattot, munshiy, kotib va mirzolar e'tirofiga sazovor bo'lgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida sodir bo'lgan tarixiy voqea va hodisalar esa ushbu davrda keng iste'molda bo'lgan Rossiya fabrika qog'ozlarida yozilgan.

XVII–XIX asrlar davomida Rossiyada qog'oz manufaktura va fabrikalarining tashkil etilishi natijasida bir necha tur va xildagi qog'oz mahsulotlari tayyorlandi. Ushbu mahsulotlarning asosiy qismi O'rta Osiyo bozorlarida xaridorgir tovarga aylandi. Zotan, ushbu davrda O'rta Osiyodagi ijtimoiy va siyosiy vaziyat Samarqand va Buxoro kabi qog'oz ishlab chiqarish markazlarida qog'oz tayyorlash ishlarining to'xtab qolishiga olib kelgan edi. Qo'qon va keyinchalik Toshkent shaharlaridagi qog'oz ustaxonalari esa hududning qog'ozga bo'lgan barcha ehtiyojlarini qondira olmas, qolaversa, Rossiya fabrikalarida tayyorlangan mahsulot ham soni, ham sifati jihatidan ustun edi.

O'rta Osiyo bozorlariga kirib kelgan rus manufaktura va fabrika qog'ozlarining qisqacha tarixiga nazar soladigan bo'lsak, Rossiyadagi qog'oz ishlab chiqarish ishi dastlab, 1655-yilda yo'lga qo'yilganligini ta'kidlashimiz mumkin. Bunga patriarx Nikon boshchilik qilgan bo'lib, Rossiyadagi birinchi qog'oz tegirmoni Moskva yaqinidagi Paxre daryosi bo'yida qurilgan edi. Ammo daryo toshqinlari natijasida qurilgan bu ustaxona bir necha marotaba buziladi. Shundan so'ng hukumat bu ustaxonani 6 yillik muddatdagi ijara asosida 1659-yilda Moskva pochta vakili Iogan van-Svedenga topshiradi. Rossiyadagi ikkinchi qog'oz tegirmoni XVII asrning 70-yillarida Moskva yaqinidagi Yauz daryosi bo'yida tashkil etilgan. Bu tegirmon ham Ereme Levkebgga ijaraga berilgan. Ammo bu ikki ustaxona butun davlat tomonidan ishlatiladigan qog'oz ehtiyojini qoplay olmagan. Shuning uchun Rossiya, Gollandiya va Fransiya kabi davlatlarning qog'ozlaridan foydalangan edi[1].

XVIII asrga kelib imperator Pyotr I tashabbusi bilan Rossiyada qog'oz tayyorlash ishi sezilarli darajada rivojlanadi. Natijada, dastlab, ushbu asr boshida Moskva, Peterburg va Koluga guberniyalarida qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan bo'lsa, 1799-yilga kelib bunday guberniyalar soni 24 taga, 1895-yilda esa 36 taga yetgan. Har bir guberniyada 1-7 tagacha qog'oz ishlab chiqarish manufakturalari faoliyat olib borgan[2].

Statistik ma'lumotlarga binoan, Rossiyada 1725-yilda 5 ta, 1761- yilda 26 ta, 1800-yilda esa 57 ta qog'oz manufakturalari faoliyat yuritgan bo'lsa, XIX asr boshlariga kelib esa qog'oz ishlab chiqaruvchi fabrikalar soni 64 ta, 1835-yilda 134 ta, 1862-yilda 162 ta, 1885-yilda 180 ta, 1895-yilda 206 tani XX asr boshlarida esa 250 tani tashkil etgan[3]. Bu Rossiyada XVII-XX asrlar davomida qog'oz tayyorlash texnologiyasining oddiy qog'oz tegirmonlaridan qog'oz fabrikalariga qadar takomillashib borganligini ko'rsatadi.

Rossiya manufaktura va fabrikalarida tayyorlangan qog'ozlar bir necha turga bo'lingan. Jumladan, qog'oz fabrikantlari o'zlari tayyorlagan qog'ozlarni besh asosiy guruhga ajratganlar:

- 1 guruh : *Писчая, печатная, гравировальная, копировальная, попиросная;*
- 2 guruh : *Документальная, рисовальная, пергаментная;*
- 3 guruh: *Пропусная и фильтрующая*
- 4 guruh: *Оберточная*
- 5 guruh: *Картон.*

Ushbu guruhga mansub qog'ozlar bir-biridan farq qilgan. Ya'ni bir yozuv qog'ozining o'zi 9-10 ga yaqin turlarga bo'lingan. Ushbu qog'ozlar ishlatilish sohasi va sifatiga qarab ham ajratilgan. Bu qog'ozlar asosan idora va tashkilotlarda rasmiy ish yuritish uchun foydalanilgan.

"Pochta qog'ozi " o'zining qalinligi va formati jihatidan farqlansa, nashr ("*печатная*") qog'ozi – yozuv qog'ozidan o'zining tovush chiqarmasligi bilan ajralib turgan. Ushbu guruhga oid qog'ozlar orasida, gravyura (*гравированная бумага*) qog'ozi - pechat qog'ozining o'ziga xos turi bo'lib, u gravyura va kartalar chizish maqsadida, nusxa (*копировальная*) olish qog'ozi esa tiniq, qalin va suv o'tkazmaydigan hamda nusxa olish uchun mo'ljallangan edi. Hujjat (*документальная*) qog'ozi esa ko'p hollarda qo'lda tayyorlangan, qalin va ingichka, qayrilganda sinmaydigan turi hisoblangan.

Rasm (*рисовальная*), pergament (*пергаментная*), o'tkazuvchan (*пропусная*), filtrlovchi "*фильтрующая*", papiros "*папиросная*", o'ram "*оберточная*", karton "*картон*" kabi qog'oz turlari katta bichimda, yupqa yoki maxsus qalinlikda tayyorlangan bo'lib, suyuqlikni filtrlash, xom-ashyo va mahsulotlarni o'rash maqsadida laboratoriyalar, aptekalarda hamda sanoat va kundalik turmushda foydalanish maqsadida ishlab chiqarilgan[4].

XIX – XX asrlarda Turkiston general-gubernatorligi, Xiva xonligi va, xususan, Buxoro amirligining deyarli barcha soha va idoralarida Rossiya fabrikalarida tayyorlangan qog'ozlardan foydalanilgan. Bu holni quyidagicha baholash mumkin:

1. Bu davrda mahalliy Samarqand va Buxoro kabi qog'oz ustaxonalarida yozuv qog'ozini tayyorlash ishi deyarli to'xtab qolgan edi;

2. XIX asrda tashkil etilgan Qo‘qon va Toshkentdagi qog‘oz ishlab chiqarish muassasalari esa qog‘ozga bo‘lgan ehtiyojni qondira olmagan. Bu qog‘ozlar shahar bozorlariga kirib kelgan, fabrikada tayyorlangan qog‘ozlar bilan sifat jihatdan raqobatlashsa-da, ammo son va narx jihatdan raqobatlasha olmagan;

3. XIX asr ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoda qog‘ozga bo‘lgan ehtiyojning ortishini Turkiston general-gubernatorligi tizimidagi rasmiy muassasalar, turli firma va shirkatlar faoliyatida, hamda ularning o‘zaro munosabatlari doirasida olib borilgan idoraviy yozishmalarning ko‘payishi bilan ham baholash mumkin.

4. Ushbu davrda Rossiya fabrikalarida tayyorlangan qog‘ozlar Xiva xonligi va Buxoro amirligi devonxonalarida mahalliy, shu bilan birga, hukumatlararo yozishmalarni olib borish uchun asosiy yozuv quroliga aylangan. Bu ham o‘z navbatida, ushbu davlatlarda fabrika qog‘ozlariga bo‘lgan talabning ortishiga olib kelgan.

XIX – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo, qolaversa, unga chegaradosh davlatlar tarixiga oid muhim ma‘lumotlar, asosan, Rossiya fabrika qog‘ozlarida yozilganligini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivida saqlanib kelinayotgan, asosan, Buxorodagi imperator siyosiy agentligi va Buxoro qo‘shbegisi devonxona hujjatlari, Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi hamda Turkiston general-gubernatorligi huzuridagi diplomatik amaldor fondlarida mavjud yozma manbalar tahlili XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Buxoro amirligi hamda Rossiya imperiyasi o‘rtasida olib borilgan diplomatik muloqot-yozishmalar asosan fabrika qog‘ozlarida olib borilganligini ko‘rsatdi[5].

Bu davrda amirlik va imperiya ma‘murlari o‘zaro munosabatlarni asosan maktub almashuvi yo‘li orqali amalga oshirilganligi aniqlandi. Bu o‘z navbatida ushbu maktublar qanday qog‘ozlarda bitilganligini tadqiq etish zaruratini olib keldi.

Demak, Rossiya imperatorining Buxorodagi siyosiy agentligining turli masalalar yuzasidan Rossiya imperiyasining boshqaruv muassasalari, Turkiston general-gubernatorligi va uning tarkibiga kiruvchi hudud ma‘murlari va bevosita Buxoro amirligi hukumati vakillari o‘rtasida olib borilgan yozishmalar quyidagi qog‘ozlardan foydalangan holda amalga oshirilganligi ma‘lum bo‘ldi[6].

➤ Rossiya fabrikalarida tayyorlangan qog‘ozlar

➤ Boshqa davlatlardagi fabrikalarida tayyorlangan qog‘ozlar

Tadqiqot jarayonida XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo mintaqasida mahalliy hamda Rossiya va dunyoning boshqa mintaqalarida tayyorlangan qog‘ozlardan foydalanilganligi aniqlandi. Ushbu qog‘ozlarda bitilgan tarixiy ma‘lumotlarni tadqiq etish bilan birga, qog‘ozning tarixini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Zero, mamlakatimiz tarixi xususida muhim ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan qog‘ozlar yozma manbalarning tarixiy qimmatini aniqlashda yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. *Малкин И.Т.* История бумаги. М.: Издательство АН СССР, 1940.–С.72.
2. Бумажная промышленность СССР 1917-1957 / подобщем редакцией К.А.Вейнова. М.: ГОСЛЕСБУМИЗ ДАТ, 1958. -С.22.

3. Бахтиаров А. История бумажного листа (историко-технический очерк). СПб.: Народное образование, М.: 1905.-С.21. Бумажная промышленность СССР 1917-1957 / подобщем редакцией К.А.Вейнова. М.: ГОСЛЕСБУМИЗ ДАТ, 1958.-С.22.

4. Бахтиаров А. История бумажного листа (историко-технический очерк). СПб.: Народное образование, М.: 1905.

5. O‘zbekiston Milliy arxivi (*keyingi o‘rinda* – O‘zbekiston MA), I-126-fond, 1-ro‘yxat, 1084-ish, 1-varaq.

6. O‘zbekiston MA, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 31-ish, 279-varaq

## TURKISTONDA 1921-1922-YILLARDA KO‘P TARMOQLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YER-SUV ISLOHOTINING AMALGA OSHIRILISHI

**Furqat SODIQOV**

*Oriental Universiteti tarix kafedrası*

*dotsenti v.b., t.f.f.d.*

**Jaloliddin JO‘RAYEV**

*Oriental Universiteti 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada 1917-1924-yillar mobaynida Turkiston o‘lkasida Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan yer-suv islohoti ko‘p ukkladli iqtisodiyot sharoitida ko‘rib chiqiladi. Xususan, qishloq xo‘jaligi sohasida yuz bergan muhim o‘zgarishlar – an‘anaviy ishlab chiqarish shakllari va bozor munosabatlarining saqlanib qolgan sharoitida Sovet agrar siyosatining joriy etilishi, davlat tomonidan dehqonchilikka nisbatan yuritilgan siyosiy va iqtisodiy bosimlar yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ko‘p ukkladli iqtisodiyot, xususiy mulkchilik, dehqon xo‘jaliklari, natura majburiyati, suv inshootlari, posyolka, irrigatsiya, melioratsiya,

**Аннотация:** В статье рассматривается земельно-водная реформа, проведенная советской властью в Туркестанском крае в 1917-1924 годах в условиях многоукладной экономики. В частности, освещаются важные изменения в аграрном секторе – введение советской аграрной политики при сохранении традиционных форм производства и рыночных отношений, а также политическое и экономическое давление государства на сельское хозяйство. **Ключевые слова.** многоукладная экономика, частная собственность, крестьянские (фермерские) хозяйства, натуральное обязательство, водные сооружения, поселок, ирригация, мелиорация.

**Annotation:** The article examines the land and water reform carried out by the Soviet authorities in the Turkestan region in 1917–1924 in the context of a multi-tiered economy. In particular, the important changes that occurred in the agricultural sector - the introduction of the Soviet agrarian policy in the context of the preservation of traditional forms of production and market relations, the political and economic pressure exerted by the state on peasantry are highlighted. **Key words.** multi-level economy, private ownership, peasant farms, in-kind obligation, water structures, settlement, irrigation, land reclamation.

Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin bolsheviklarning agrar siyosati yer-suv munosabatlarida xususiy mulkchilikni tugatish, mayda dehqon